KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 34 (564) 2025-YIL, 18-AVGUST

Mustaqillikning 34 yilligi oldidan

Barchamizga ma'lumki, Davlatimiz rahbari kuni kecha "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarorni imzoladi.

Hujjatga asosan, bu yilgi bayram tadbirlari yurtimizda "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan bosh g'oya asosida bo'lib o'tadi.

ISTIQLOLIMIZ ABADIY BO'LSIN!

Bayram tadbirlari dasturidan milliy qadriyat va an'analarimiz, boy urf-odatlarimiz keng o'rin olgan. Bilamizki, O'zbekiston tarixidagi 34 yil bu mustaqillikni qo'lga kiritish, siyosiy mustaqillikni iqtisodiy mustaqillik bilan mustahkamlash, barcha to'siqlarni yengib o'tish, yangi marralarni zabt etish davri bo'ldi.



Ota-bobolarimiz asrlar davomida kurashgan, intilgan va jonini fido qilgan bebaho ne'matni xalqimiz ko'z qorachig'idek asrab avaylab, kelmoqda, bu yo'lda xalqimiz ne-ne sinovlarga duch kelmadi. Xalqimiz hamjihatlik, oqillik bilan dovonlar oshib, dunyoda o'z obro'-e'tiborini mustahkamlab kelmoqda. Shu bois ham, Mustaqillik bayrami xalqimiz uchun aziz va mukarramdir.

Mamlakatimizda bu bayram har yili katta tantana va shodiyona bilan kutib olinadi. Bu bayramda O'zbekistonning bugungi qudratiga, mustaqillik yillarida erishgan zalvorli yutuqlariga, xalqaro miqyosdagi nufuziga xos va mostarzda o'tkazish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi. Bu 34 yillik davrda O'zbekiston katta o'zgarishlarni, buyuk jarayonlarni, yangidan yangi islohotlarni egasi bo'lib maydonga chiqdi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Albatta, bu bayram barchamiz kutgan orzular bayrami, chunki mustaqillik bayrami bizga erkimizni, o'zligimizni qaytarib berdi.

Qarorda belgilanganidek, Mustaqilligimizning 34-yillik bayrami barcha viloyatlarda va tuman shaharlarda, qishloq va ovullarda munosib nishonlanadi. Qolaversa, keng qatlamlar o'rtasida mustaqillik bayramiga bag'ishlangan, ma'naviy-ma'rifiy anjumanlar, uch avlod uchrashuvlari, ochiq muloqot va suhbatlar, badiiy kechalar, milliy kino kunlari, sayillar, sport tadbirlari hamda festivallar yuqori kayfiyatda o'tkazilib kelinmoqda. Ayniqsa, kuni kecha viloyatimizga tashrif buyurgan poytaxtimizning taniqli san'atkorlari va aktyorlari, olimayu-shoirlari bilan bo'lib o'tgan "Ma'rifat karvoni" festivali chekka chegara hududlarimiz, tumanlarimiz aholisi bilan uchrashuvlar, targ'ibot tadbirlari, davra suhbatlari tashkil qilinib, o'zlarining mazmunli ma'ruzalari, sahna ko'rinishlari orqali xalqimiz qalbidan o'rin oldilar, Xonobod shahrida bo'lib o'tgan "Dunyo sadolari" festivali ham aholimiz va yoshlarni kayfiyatini yanada ko'tarinki kayfiyatda o'tishiga sababchi bo'ldi, bo'lib o'tgan festivaldan keksa-nuroniylarimiz, yoshlar katta taassurotlar bildirdilar. Albatta, bunday keng miqyosda bo'lib o'tayotgan tadbirlarimiz yurtimizning tinchligidan dalolat beradi.

(Davomi 3-betda).

"Dunyo sadolari" – 2025

FESTIVAL O'ZBEKISTONNING XALQARO NUFUZINI OSHIRMOQDA

Farg'ona vodiysining turizm markaziga aylanayotgan Xonobod shahrida o'tkazilgan "Dunyo sadolari" III xalqaro milliy estrada san'ati festivali uch kun davomida qiziqarli tadbirlar va dasturlarga boy bo'ldi.









Festival tadbirlari doirasida «Bahodirlar o'yinlari» bo'yicha navbatdagi jahon kubogi musobaqasida esa Xitoy, Hindiston, Avstraliya, Fransiya, Argentina, Ispaniya, Eron, AQSH, Janubiy Koreya, BAA, Polsha, Gruziya, Armaniston, Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Tojikiston, Ozarbayjon, Turkiya, Misr kabi 26 ta davlatdan sportchilar ishtirok etganligi O'zbekistonning xalqaro sport maydonidagi obro'sini yanada oshiradi.

Festival mehmonlari shahardagi Alisher Navoiy nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida tashkil etilgan savdo, milliy hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazmalari, dorbozlar guruhi, san'atkorlar hamda badiiy jamoalarning chiqishlaridan bahramand bo'ldi.

–Turli suviner mahsulotlari, milliy qo'g'irchoqlar tayyorlash bilan shug'ullanaman, – deydi Buxoro viloyati Kogon tumanidan kelgan hunarmand Nigina Ostonova. – Festivalda o'z mahsulotlarim ko'rgazmasi bilan qatnashyapman. Mahsulotlarimni yurtdoshlarimiz, ayniqsa, qo'shni Qirg'izistondan kelgan mehmonlar katta qiziqish bilan sotib olmoqda. Maftunkor Xonobod shahrida o'tayotgan, milliy hunarmandchilik mahsulotlarimiz keng targ'ib etilayotgan ajoyib festivalda ishtirok etayotganimdan behad xursandman.

Bundan tashqari, festival kunlari marafon, kurash musobaqasi, shuningdek, avtomobil ishqibozlari uchun tyuningli mashinalar ishtirokida "Drift-shou" tadbirini minglab festival mehmonlari katta qiziqish bilan kuzatdilar.

–Festival milliy qadriyatlarimiz, an'analarimizni targ'ib etish, odamlarga xush va ko'tarinki kayfiyat ulashish bilan birga Xonobod shahar infratuzilmasi, turizm imkoniyatlarini, shahar iqtisodiyotini yuksaltirishga xizmat qiladi, – deydi Xonobod shahar hokimi vazifasini bajaruvchi Elyorbek Xolmirzayev. – Avvalgi yilga nisbatan bu yil festivalga keluvchilar soni ancha ortdi. Ayniqsa, shaharning savdo aylanmasi bir necha barobar o'sdi.

Mamlakatimiz mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayrami arafasida Xonobod shahrida bo'lib o'tgan III xalqaro estrada festivali yurtimiz tinchligi, farovonligi va rivojlanishning belgisi, dunyoning qator davlatlaridan mashhur estrada yulduzlarining tashrifi esa O'zbekiston dunyoga yuz tutayotganligiga bir misoldir.

Tadbirning birinchi oqshomiga 150 mingdan, ikkinchi kuni esa 200 mingdan ortiq odam tashrif buyurgan. So'nggi kechada bu ko'rsatkich 250 mingdan oshdi. Festivalning birinchi kuni "Arabesque" guruhi, Alisha Chinay, In-Grid va Munisa Rizayevalar chiqish qilgan bo'lsa, ikkinchi kunda Imron, Shohruhxon, Sevinch Mo'minova va Mustafo Sandallar kuyladi. Tadbirning so'nggi kunida Jaloliddin Ahmadaliyev, Setora guruhi va jahon yulduzi Arash davrani qizdirdi.

(Davomi 3-betda).

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT – TARAQQIYOT KAFOLATI

O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

TARAQQIYOT YO‘LIDAGI TO‘SIQ

Taraqqiyotga g‘ov bo‘ladigan illatlardan biri – korrupsiya insoniyatning o‘zi qadar qadimiydir. U zamonu makonga qarab faqat shaklu shamoyilini yangilab boradi, xolos. Korrupsiyaga qarshi kurash olib borilayotgan bo‘lsa-da, unga butunlay barham bergan birorta ham davlat yo‘q. Xalqaro valyuta jamg‘armasining ma’lumotlarida dunyoda korrupsiya va poraxo‘rlik natijasida yiliga 1,5-2 trillion dollar mablag‘ o‘zlashtirilib, jahon iqtisodiyotiga juda katta zarar yetkazilayotgani qayd etilgan.

Bugungi kunda ko‘pchilik korrupsiya deganda faqatgina ish bitirish uchun pul oldi-berdini nazarda tutadi. Buning sababi shuki, korrupsiyaning bu ko‘rinishi jamiyatning quyi qatlamida keng tarqalgan. Aslida korrupsiya maishiy (fuqarolar bilan mansabdor shaxslar va davlat xizmatchilarining kundalik ish faoliyatidagi manfaatlar to‘qnashuvi), ishbilarmonlik (tadbirkorlik sub’yektlari bilan hokimiyat vakillarining munosabatlarida uchraydigan) va yuqori hokimiyat organlari korrupsiyasi (siyosiy hukmron doiralar hamda odil sudlov tizimi faoliyatida ko‘zga tashlanadigan) kabi bir qancha turlarga bo‘linadi. Korrupsiyaning kelib chiqish sabablari sifatida tadqiqotchilar to‘rtta omilni ko‘rsatadilar.

Birinchisi – iqtisodiy sabablar. Korrupsiyaning bu ko‘rinishi ijtimoiy va iqtisodiy hayotni bevosita ma’muriy yo‘l bilan boshqarishga intilgan hokimiyat va byurokratiyaning mavqei baland bo‘lgan davlat sharoitida rivoj topadi. Iqtisodiy faoliyatga nisbatan o‘rnatilgan turli xildagi cheklashlar, amaldorlarning keng, nazoratdan xoli, cheklanmagan yoki ruxsat berish, yoki taqiqlash vakolati korrupsiyaga zamin yaratadi. Shu bilan bog‘liq holda, yirik mablag‘larga ega bo‘lgan ayrim ishbilarmonlar o‘z daromadlarini ko‘paytirish maqsadida va raqobatda alohida imtiyozlarga ega bo‘lish uchun hukumat amaldorlarini pora evaziga sotib olib, ularni o‘z ixtiyorlariga bo‘ysundirishga intiladilar.

Ikkinchisi – huquqiy sabablar. Korrupsiyaning rivoji qonunlarning sifatiga bog‘liq. Mukammal bo‘lmagan qonunlar ishlamaydi va ayrim shaxslar uddaburonlik, ya’ni normativ-huquqiy hujjatlardagi nazarda tutilmagan yoki tartibga solinmagan, umumiy ma’noda huquqiy bo‘shliqni topib, bundan ustalik bilan foydalanadilar.

Uchinchisi – institutsional sabablar bo‘lib, ularga, avvalo, davlat boshqaruvi tizimidagi nuqsonlar, demokratik institutlarning kuchsizligi, natijada hukumat faoliyatining yopiqligi yoki fuqarolik nazoratidan xoliligi kiradi.

To‘rtinchisi – ijtimoiy sabablar yoki jamiyatdagi muhit, aholining huquqiy bilimi, madaniyat darajasi, ma’naviyati va jamoaviy faolligi pastligi kabi omillardir.

O‘zbekistonda ta’lim, tibbiyot va bank sektori sohalarida poraxo‘rlik illati keng uchraydi. Buning sababi nima? Ta’lim va tibbiyotda bu illatning avj olishi sabablaridan biri va asosiysi ishsizlik, ish o‘rinlarining yetarli emasligi, aholining kichik bo‘lsa-da, muqim maosh va tayinli ish o‘rniga ega bo‘lish istagidir. Bog‘bonlik bo‘ladimi, farroshlikmi yo o‘t yoquvchilik, nima bo‘lsa ham tayinli ishga kirish istagi kishilarni yillab yig‘gan-terganlarini qo‘shqo‘llab birovga topshirishga undaydi. Ayniqsa, o‘rta maxsus ma’lumotli kishilar orasida qanday yo‘l bilan bo‘lsa-da, ishga joylashish istagi kuchli va bu yuqoridagi sohalarda korrupsiyani rivojlantirmoqda. Tibbiyotda esa inson salomatligi omili borki, u olovni yanada alangalatadi.

Qolaversa, huquqiy savodxonligimiz bilan ham maqtana olmaymiz.

Negaki, qonunan o‘zimizniki bo‘lgan narsani huquqlarimizni bilmasligimiz sababli pul yoki tanish-bilishchilik evaziga qo‘lga kiritishga harakat qilamiz.

Korrupsiya holatlariga barham berish borasida turli qarashlar mavjud. Albatta, bunday illatni tag-tomiri bilan yo‘q qilaman degan davlatlar boshqa rivojlangan mamlakatlarning tajribalariga ham tayanadilar. Ayrimlar korrupsiya holatlariga nisbatan jinoiy jazolarni keskin kuchaytirish tarafdori bo‘lsa, ba’zilar o‘lim jazosi yoki tan jazosi choralarini qo‘llash kutilgan natijalarni berishini aytadilar.

Ayrim hududlar mazkur illatga qarshi keskin chora-tadbirlari bilan ajralib turadi. Xususan, Xitoyda pora uchun bir umrlik qamoq yoki o‘lim jazosi joriy etilgan. Boshqa davlatlarda ham shunga o‘xshagan keskin choralarni kuzatishimiz mumkin. Bularning barchasidan maqsad bitta – korrupsiyaga barham berish.

Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni 2017-yilda 4-yanvardan boshlab kuchga kirgan.

Albatta, qonun ustuvorligining ta’minlanishi, korrupsiyaga qarshi qonunlarning ishlashi, qonunni qo‘llovchilar, ya’ni prokuratura, ichki ishlar, adliya va odil sudlov tizimi vakillarining adolat tamoyillaridan chekinmasligi korrupsiyaga barham berishda muhim omil bo‘ladi. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishga murakkab jarayon sifatida qaralib, tadqiqot institutlari, ijtimoiy tadqiqot markazlari ishlashi kerak. Ular jamiyat a’zolarining xatti-harakatlarini har tomonlama tahlil qilishlari lozim. Jumladan, endigina mansab pillapoyalaridan ko‘tarilayotgan shaxs fe’l-atvoridagi qaysi jihatlarga moyillik ustunligini o‘z vaqtida anglash va kerakli tadbirlarni ko‘rish ham bu yo‘lda kerakli odim bo‘lishi mumkin.

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurash qonuniylik va ilmiylikka asoslangan bo‘lishi kerak. Unutmaslik kerakki, jinoyatga jazo muqarrar.

Zafar TOXTASINOV,
Jinoyat ishlari bo‘yicha Xonobod shahar sudining tergov sudyasi.

Panjara ortidagi inson bilan suhbat



Loyihamiz mavzusidan kelib chiqqan holda pora olib hozir hibsxonada saqlanayotgan sobiq mansabdor bilan suhbatlashishni rejalashtirdim. Kerakli ruxsatni olgach o‘sha men suhbatlashmoqchi bo‘lgan inson bilan uchrashdim. Quyida suhbat davomida aytgan gaplarini o‘qiysiz.

“Oilada asosiy boquvchi otam edi. Onam uy ishlari bilan mashg‘ul bo‘lardi. Baxtsiz hodisa tufayli otam vafot etdi. Avval biron joyda ishlamagan yoki biron hunari tufayli pul topmagan ayol zimmasiga oila tebratish tushdi. Juda qiyinchilik bilan yashadik. Katta bo‘lsam kattakon bo‘laman deb astoydil o‘qidim. Maktabni a’lo baholarga tugatdim. Institutga kirdim. Oliygohda ham yaxshi o‘qidim.

Qo‘lga diplom olgan kunimda onamni quvonganlarini ko‘rsangiz edi “Meni bolam, endi o‘zi orzulaganidek kattakon bo‘ladi.” deya maqtanardi. Ishga kirdim. O‘zimni ko‘rsatishim kerak edi. Shuning uchun tinimiz mehnat qildim. Menga berilgan vazifani iloji bo‘lsa 200 foiz qilib bajardim.

Bir kuni ishda edim. Mahalla raislaridan biri telefon qilib qoldi.

-Uka, bir mahalladoshimiz kadastrini qilolmay ancha qiynaldi. Shunga yordam berib yuboring, - dedi.

-Mayli, aka. Menga telefon raqamini bera olasizmi?

-Ha, hozir raqamingizga yuborib qo‘yaman.

Oradan biroz o‘tgach, telefonimga xabar keldi. Qarasam, o‘sha rais raqami. Ish vaqtim tugashidan oldin rais aytgan raqamga telefon qildim.

-Uka, rahmat. Ancha xursand qildingiz. Shu hujjatlarim bitmagani uchun ancha diqqat bo‘lib yurgandim.

-Diqqat bo‘lishingizga arzimaydi. Hammasini hal qilamiz. Ertaga ishga kelayotib uchrayman. Bo‘laveradimi?

-Ha, ha. Bo‘laveradi.

Ertasi kuni ertalab bordim. Rosa hujjat qilishdan bezillab ketgan onaxon ekan. Meni qo‘yarga joy topa olmadi.

-Opa, raisingiz aytgandir. Men kadastrda ishlayman. Ismim Ilhom deb tanishtirdim o‘zimni va «men sizga hujjatlarni rasmiylashtirishga yordam beraman» dedim.

Hovlini aylanib chiqqach, «nega ilgari hujjat qildirmagansizlar?» deb so‘radim.

Opa esa ikki-uch marta Davlat xizmatlari markazi orqali ariza topshirganini va arizasi qanoatlantirilmaganini aytadi.

Mayli unda men bir o‘rganib chiqay, keyin javobini aytaman.

Ayol shoshib qoldi. “Uka, shu ishimni hal qilib bering. O‘zingizni qo‘lingizda ekan. Chiqimi bo‘lsa tayyorman” dedi.

“Chiqimi bo‘lsa tayyorman” avvallari bunday so‘zga e’tibor bermas edim. Ayol bu gapni shunday bir yalinganamo aytdiki, qulog‘imga o‘rnashib qoldi.

Ha, o‘shanda birinchi marta fikrimdan chalg‘ishni boshlaganman.

Oradan ikki kun o‘tib, ayolga qo‘ng‘iroq qildim. Opa meni ovozimni eshitiboq:

-Uka, nima bo‘ldi? Hujjat qilib berasizmi? - dedi.

-Opa iltimos qilganingiz uchun rahbar bilan gaplashdim. Haligi aytganingizday chiqimi bor ekan.

-Mayli, aytdim-ku men roziman deb, - dedi ayol.

-Kelavering, hujjatlarimni ham olib ketasiz. Gaplashib olamiz.

Yana ayolnikiga bordim.

-Opa kadastr hujjatlarini tayyorlash xarajati 700 AQSH dollar ekan, - dedim-da orqasidan yana qo‘shib qo‘ydim. Bergan pulingizdan 300 dollarini me’morga beraman, qolgani esa yugur-yugurga ketadi.

- Uka, sharoitim yaxshi emas. Buncha pul topib bera olmayman. Sal kelishtirib ayting.

-Opa, o‘zingiz iltimos qilganingiz uchun qilayapman. Men bunday ishlarni qilmasdim. O‘zingiz ham bilib turibsiz-ku, pul bermasa ish bitmasligini.

Shundan so‘ng ayol noiloj uning talabimga rozi bo‘ladi.

To‘rt-besh kun o‘tganidan so‘ng qo‘ng‘iroq qilib, «pul tayyor bo‘ldimi?» deb so‘raganimda u hali pul topolmaganini aytdi.

Ammo puli yo‘q odamni tinch qo‘ymadim. Unga qo‘ng‘iroq qilaverib, pulni qistayverdim. Shundan so‘ng ayol bir iloj qilib aytilgan pulni berdi.

Ayolni ishini bitirib berdim. Men uni ishini bitirganimdan emas, u bergan pulni osongina topganimdan xursand bo‘ldim. Ayol, bechora birovlardan qarz havola qilib bergandi. Qarzga botsa ham ishi bitganidan xursand bo‘ldi.

Menga tekindan kelayotgan pullar mazasi yoqib qoldi. Chunki, oylik maoshdan keyingi maoshgacha arang pullarni yetkazar edim.

O‘sha pullardan bozorlik qildim. Uyga kirib borganimda onam ko‘rib:

-Bolam oylik olishingga hali ancha bor edi. Pulingni tejab ishlatsang bo‘lmaydimi? O‘zing qiynalib qolasanu.

-Onajon buni tashvish qilmay qo‘yavering. Endi o‘g‘lingiz katta odam bo‘lyapti.

-Bu nima deganing, tushunmadim.

-Odamlarni ishini bitirib beryapman, deyapman, onajon.

-Xo‘p, bitkazsang, ish haqi olyapsan-u.

-Ha, to‘g‘ri. Lekin o‘sha ishini bitkazib bergan odamlarim menga ko‘nglidan chiqarib suyunganidan suyunchi beryapti.

-Hali, senga qilgan ishing uchun ish haqi olayotganing yetmayaptimi?

-Qanday yetayotganini ko‘rib turibsiz-ku!

-Och qolmayapmiz, shunisiga ham shukr qilgin, bolam.

-Ona, men nima qilay, odamlar o‘zi beryapti.

Bilasizmi, o‘shanda onamga to‘g‘risini ayta olmadim.

-Bersa olaverasanmi? Olma.

-Xo‘p.

Keyingi gal yana onam:

-Ha, yana oldingmi? – deya kutib oldi.

-Onajon men olmadim. Ular o‘zlari tashlab ketibdi.

Onam bir narsani sezganday olib kelgan narsalarimni yemas edi. Asta:

-Nega yemayapsiz? – deb so‘rasam.

-Meni tomog‘imga tiqilib qoladi, - dedi.

Men nodon shunda ham tushunmabman. Olaveribman.

Mana onasini gapiga kirmagan o‘g‘ilni holi neligini ko‘rib turibsiz.

Qani edi, hammasini ortiga qaytarib, boshqatdan boshlay olsam. Lekin afsuski, iloji yo‘q.

M.ORTIQOVA.

ISTIQLOLIMIZ ABADIY BO‘LSIN!

(Davomi. Boshi 1-betda).

Boisi, mustaqillik yillarida har bir sohada kattadan katta yutuqlarga erishayotganligimizni mamnuniyat bilan aytish kerak. Keyingi yillarda mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlar uchun imkoniyatlarni har tomonlama kengaytirish, “yashil” va raqamli iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha hayotga tatbiq etilayotgan yirik dastur va loyihalar hamda bu borada qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar, sud-huquq tizimini isloh etish, shahar va qishloqlarimizni obod qilish, mahalla tizimini xalqimizga yanada yaqinlashtirish yo‘lidagi say-harakatlar, eng muhimi yosh avlodga Yangi O‘zbekistonning kelajagi sifatida alohida e’tibor qaratilayotganligi, kelajak bunyodkorlari bilan ishlash bo‘yicha yangi tizimlar joriy etilganligi bu yurtimiz taraqqiyoti uchun katta zamin yaratib kelmoqda. Ularni zamonaviy kasb-hunarga o‘qitish, bandligini ta’minlash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yurtimizda shakllangan samarali va ta’sirli tizim mohiyatini ochib berilganligi barchamizni birdek quvontiradi.

Chunki, barchamiz inson qadri oliy mezon bo‘lgan yangi hayot, yangi jamiyat qurish yo‘lida qo‘lga kiritgan zafarlarimizni mustaqil taraqqiyot g‘oyasiga hamisha sodiq, mard va matonatli xalqimizning fidokorona mehnati, aql zakovati va bunyodkorlik salohiyati mahsuli deb bilamiz va ana shunday oliyjanob elning farzandlari ekanimizdan faxrlanamiz.

O‘tayotgan har bir kun bizni eng ulug‘ va eng aziz bayramimizga yaqinlashtirmoqda. Qalbimizda ajib hayajon, o‘tgan davrda davlatimiz bosib o‘tgan zafarli yo‘llarga boqish, razm solish har bir insonga faxr va iftixor ulashishi tabiiy. Muhimi xalqimiz erishgan ulkan yutuqlarda shu yurtda yashayotgan har bir insonning munosib hissasi borligi, yurtimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik hissi borligi muhim ahamiyat kasb etadi.



Albatta, bu o‘zgarishlarning barchasi Vatanimiz Mustaqilligi bilan bog‘liq. Shu bois, yurtimiz aholisi bu bayramni har yili keng nishonlaydilar. Xalqimiz manfaati, davlatimiz taraqqiyotiga xizmat qiladigan yangi g‘oyalar, yangi tashabbuslar bilan qarshi oladilar. Yangi rejalar tuzib, faqat va faqat oldinga intilishga harakat qiladilar. Zero, bu jannatmakon yurtda barcha yaxshi yashashga haqli va butun sa’y-harakatlarimiz ham shunga qaratilgan. Bayramingiz muborak bo‘lsin, aziz yurtdoshlar!

Tursinoy MURATOVA.

FESTIVAL O‘ZBEKISTONNING XALQARO NUFUZINI OSHIRMOQDA

(Davomi. Boshi 1-betda).

Mustafa Sandal sahnada turib muxlislariga qarata:

- Juda ajoyib ko‘rinyapsiz, tomoshaga kelgan barcha, qani qo‘llarni yuqoriga ko‘taramiz. Naqadar go‘zal ko‘rinish, naqadar ajoyib, qani, barcha qo‘llarini yuqoriga ko‘tarsin.



Meni bu yerga taklif etganingiz uchun ming tashakkur, sog‘ bo‘ling, bor bo‘ling, tashakkur! – dedi.

Mehmon xonanda sifatida taklif etilgan eronlik qo‘shiqchi Arash esa O‘zbekistonda ilk bor 15-20-yil avval bo‘lganini, mamlakat to‘g‘ri yo‘lda jadallik bilan rivojlanayotganini ko‘rib sevinishini aytdi.

“Men hozir Toshkentda emas, mamlakat chekkasidaman, lekin bu yer menga juda yoqdi. Men O‘zbekistonni, o‘zbek xalqini sevaman. Men bu yerga ko‘p kelaman va doim do‘stona muhitni his qilaman. Umid qilamanki, bunday go‘zal joylarga safarlarim yana ko‘p bo‘ladi”, - dedi u QALAMPIR.UZ jurnalistiga bergan intervyusida.

Shuhratbek Abdurahmonov bu kabi tadbirlarning ahamiyati haqidagi savolga javob berib, “Dunyo sadolari” festivalini o‘tkazishdan asl maqsad Xonobodni turizm shahriga aylantirish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish ekanini bildirdi.

“Festival uchinchi yil bo‘lyapti, uch yilda shunchalik nufuzi ortdi.



Buning orqasida qancha xalqning Xonobodda iqtisodi yaxshilanyapti, qancha tadbirkorlik ko‘payyapti, qancha soliq tushumlari bo‘lyapti”, dedi u.

“Eng asosiysi, birinchi kun 150 ming, kecha 200 ming, bugun 250 ming xalq keldi. Qo‘shni Qirg‘izistondan kiradigan postlardan raqamlarni olyapmiz, oddiy kunlarda Xonobod postidan 2,5 – 3 ming odam o‘tgan bo‘lsa, hozir 33 mingga chiqdi. Har bittasi kirayotganda nimadir sotib oladi, eng asosiysi, Xonobodda bugun odamlarimizning yashash madaniyati ham o‘zgaryapti festival orqasidan. Nega? Uy mehmonxonalari, mingdan ortiq dalahovlilar paydo bo‘lyapti. Bugun bitta dalahovlining bir sutkasi 300 AQSH dollari. Bu pulga kim turardi agar festival bo‘lmaganda? Qolaversa, festival uch kunlik san’at emas, biz bir oylik e’lon qilganmiz. Sport tadbirlari o‘tkazdik, “Bahodirlar o‘yini”ga 26 davlatdan kelishdi, har bitta sportchining orqasidan o‘nlab muxlislari kelyapti yoki kurash musobaqasini o‘tkazdik, 195 ta polvon qatnashdi. Ularni orqasidan odamlar keldi. Yana bir marta aytaman, albatta, hammasi Andijonda, Xonobodda turizmni rivojlantiryapti, hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanib boryapti”, dedi Andijon viloyat hokimi Shuhrat Abdurahmonov.

Faxriddin IBAYDULLAYEV,
Abdurahmon ERGASHEV.

NORUDA FOYDALI QAZILMALARNI O‘Z ICHIGA OLGAN YER QA’RI UCHASTKALARIDAN FOYDALANISH HUQUQIGA LITSENZIYALAR BERISH JARAYONIDA SHAFFOFLIKNI TA’MINLASH MAQSADIDA VAZIRLAR MAHKAMASI 546-SONLI QARORI QABUL QILINGAN EDI. UNGA KO‘RA, 2020-YIL 1-YANVARDAN BARCHA NORUDA FOYDALI QAZILMALARNI O‘Z ICHIGA OLGAN BARCHA YER QA’RI UCHASTKALARI BO‘YICHA FOYDALANISH HUQUQI UCHUN LITSENZIYALAR BERISH TARTIBI BELGILANDI.

YER QA’RI UCHASTKALARIDAN FOYDALANISH HUQUQINI QANDAY YUTIB OLISH MUMKIN?

O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi tomonidan beriladigan elektron buyurtma noruda foydali qazilmalarni o‘z ichiga olgan yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqiga litsenziyalarni «E- AUKSION» elektron savdo platformasida realizatsiya qilish belgilandi. Auksion savdolari yakunlangandan so‘ng 20 kundan oshmagan muddatda litsenziya berilishi ko‘zda tutildi. Ushbu tartibga muvofiq «Suv obyektlarini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari muvofiq daryolar o‘zanlarida noruda foydali qazilmalarni qazib olish tasdiqlangan zaxiralar mavjudligiga salbiy ta’sirlariga yo‘l qo‘ymaslik sharti bilan foydalanish huquqini beradigan tartibi ham yer qa’rini geologik o‘rganish, yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilish yuzasidan davlat nazorati mahalliy ijro hokimiyati organlari, shuningdek Davlat geologiya qo‘mitasi va Davlat ekologiya qo‘mitasi tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Jamshidbek ISROILOV,
“Elektron-onlayn auksionlarni tashkil etish” AJ
Andijon viloyati hududiy vakili.



Aziz NESIN

HUSHTAKLI QOZONLAR

(Hajviya)



Bizning muqaddas burchimiz milliy sanoatni qo‘llab-quvvatlashdir. Shu bois, men matbuot vakillarini hushtakli qozonlar ishlab chiqaradigan zavodga taklif qilishganini bilganimda chin dildan xursand bo‘ldim. Biz matbuotchi hamkasblar yig‘ildik va bizni darvoza oldida kutib olishdi. Zavod direktori yoqimtoy, xushmuomala kishi ekan. U har birimiz bilan o‘rnidan turib salomlashdi, qo‘l berib so‘rashib, qulay o‘rindiqqa o‘tqazdi.

Milliy sanoatimiz dadil qadam tashlab hushtakli qozon ishlab chiqarishni o‘zlashtirganidan juda xursand bo‘ldim.

Direktor bizni chekishga taklif qila turib, qo‘ng‘iroq tugmasini bosdi. Chiroyli kiyingan odam kirib keldi.

– Mehmonlardan nimani xohlashlarini so‘rang, – dedi direktor unga. Keyin u bizga yuzlandi: – Bizda yaxshi qulupnay sharbati bor.

Biz gazetachilar, o‘ttizga yaqin odam yig‘ilgandik, hammamizga xushmuomalalik bilan choy, qahva yoki qulupnay sharbati ulashishdi. Dastlab ob-havo haqida gaplashdik, keyin mahalliy filmlar xususida, so‘ngra baliqchilikni rivojlantirish chora-tadbirlari muhokamasiga o‘tildi. Bir nechta o‘tkir latifalar aytilib, quvnoq kulgilar yangradi. Oramizda latifago‘ylikni qotiradiganlar ko‘pchilik ekan, direktorning xonasi bir zumda gurungxonaga aylanib, har kim ichida borini to‘kib soldi.

Keyin zavod direktori mehribonlik bilan barchamizni tushlikka taklif qildi.

Dasturxon noz-ne’matlarga to‘lib toshgan edi. Bu yerda yo‘q narsaning o‘zi yo‘q: qo‘y go‘shti, uvuldiriq, ovlangan yovvoyi qushlar go‘shti va hatto cho‘chqa go‘shti ham bor, faqat qush suti yetishmayapti, deyish mumkin.

Dasturxon atrofida shunchalik quvnoq va davomli kulgi bo‘ldiki, bir hamkasbimiz tomog‘iga tovuq suyagiga tiqilib jon taslim qilishiga oz qoldi.

Tushlikdan keyin biz kofe ichib, chekib gurunglashdik. Iqtisodiyotni sharhlashga ixtisoslashgan muxbirlarning ko‘pchiligi boshqa shoshilinch ishlari borligi uchun direktordan kechirim so‘rab, ketib qolishdi.

Ma’lumki, gazetachilar hamisha barcha ishlardan xabardor. Qolganlari ham gurungdan chetda qolmay, musiqa va atom bombasi, teatr va reaktiv samolyotlar haqida ishonch bilan gapira boshladilar.

Soat besh bo‘lib qoldi.

– Tamaddixonaga xush kelibsiz! – deya taklif qildi direktor.

Tamaddixona shunchalik hashamatli, dasturxon shunchalar to‘kin ediki, tushlik hali oshqozonimizda hazm bo‘lishga ulgurmaganidan chin dildan pushaymon bo‘lgimiz keldi. Ishtahani ochish uchun biz ichimlikka zo‘r berdik. Go‘shtli gazak bilan aroq, mevalar bilan vino, shirinliklar bilan likyor, kerevit, pishloq va yong‘oq bilan – pivo ichdik, keyin esa, viski va jin kabi har xil xorijiy ichimliklar aralashib ketdi.

Keyinroq yana bir guruh gazetachilar ketishdi. Milliy sanoatni rivojlantirishga katta ahamiyat berib, hushtakli qozon ishlab chiqaradigan zavod haqida nimalardir aytishlarini kutishga qaror qildim.

Kechki soat sakkizda biz uch kishi qoldik: sport sharhlovchisi, krossvordlar tuzuvchi va men, feletonchi.

Direktor: “Yeding, ichding, yana nimani kutyapsan?” degandek bizga qaradi. Men jimgina sport sharhlovchidan so‘radim:

– Nima qilamiz?

– Direktor meni mashinada olib ketishga va’da berdi, shuning uchun uni kutaman!

Ikkinchisi direktorning eski tanishi bo‘lib chiqdi. Ortiqcha gapga o‘rin qolmadi. Men xijolat bo‘lib direktorga yuzlandim:

– Zavodingiz haqida qisqacha ma’lumot bersangiz?

Direktor negadir menga g‘alati qaradi va qalamni tishlab, ajablanib so‘radi:

– A? Nima? Zavod haqidami?.. Ko‘rdingizmi, zavodimiz… zavodimiz, ta’bir joiz bo‘lsa, hushtakli qozon ishlab chiqaradigan zavod… ya’ni, nima bo‘lishidan qat’i nazar, hushtakli qozonlar. Zavodimizda kuniga yettita shunday qozonlar ishlab chiqariladi. Men bu zavodga kelgunimcha, uning mahsuldorligi kuniga atigi beshta qozon edi. Umid qilamanki, yaqin kelajakda uning quvvatini kuniga o‘nta qozonga yetkazamiz. Hukumatimiz dasturiga ko‘ra, har bir fuqaro o‘z uyi, hovuzi va ayvonli mo‘jaz bog‘i bilan birga hushtakli qozoniga ega bo‘lishi zarurligini bilasiz. Shuning uchun fabrikamizning ishlab chiqarish quvvatini yanada oshirishimiz kerak…

Albatta, faoliyatimizda ba’zi qiyinchiliklarga duch kelyapmiz.

Bizning qozonlarimiz sifati Yevropa va Amerikaning hushtakli qozonlaridan ancha ustun. Birinchidan, hushtaklarimiz ovozi juda yoqimli. Misol uchun, siz loviyani qozonga solib qo‘ydingiz va ular qaynadi, to‘g‘rimi? Bu vaqtda qozon hushtak emas, quloqqa yoqimli shunday ohang chiqaradiki, go‘yo Zeki Murenning o‘zi “Magnoliya”ni ijro etayotganday bo‘ladi.

Amerikada ishlab chiqarilgan hushtakli qozonlar esa shunchalik kutilmagan va quloqni teshuvchi hushtak chaladiki, hatto homilador ayollar uning ovozini eshitib, qo‘rquvdan muddatidan oldin tug‘ib qo‘ygan holatlar ham yuz bergan. Bundan tashqari, o‘zimizning hushtaklarimiz uzoqroq chalinadi. Bir so‘z bilan aytganda, mahsulotlarimiz xorijnikidan har jihatdan yaxshiroq.

Lekin, aytganimdek, bizda kerakli qiyinchiliklarga ham duch kelyapmiz. Lekin bu qiyinchiliklarni gazetada yozmasligingizni so‘rayman. Gap oramizda qolaqolsin. Hushtakli qozon ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan materiallar va qismlar, ya’ni: qozonlar, qopqoqlar, murvatlar, hushtak va shunga o‘xshashlarni biz Amerikadan olamiz. Ammo hamma narsani shu yerda yig‘amiz va turk ishchisining peshona terlari bilan tayyor bo‘lgan hushtakli qozonlarni chiqaramiz. Ular ustiga “Turkiyada ishlab chiqarilgan” degan yozuvli metall yorliqni yopishtiramiz. Biz bu yorliqlarni ham Amerikadan olamiz. Zavodga aralash Turk-Amerika sarmoyasi kiritilgan. Pul bizniki, lekin g‘oya Amerikaniki!..

Biroq so‘nggi paytlarda ehtiyot qismlar va materiallar kelishi to‘xtab qoldi va shuning uchun biz hushtakli qozonlarni ishlab chiqarishda qismlar va materiallar yo‘q. Xudoga shukr, yurtimizda hushtak yetarli, ammo qozon yo‘q. Ammo biz muammoning yechimini topdik: faqat hushtak ishlab chiqaramiz va sotamiz. Siz o‘zingizning oddiy qozoningizni olib, unda taom pishirishingiz va vaqti-vaqti bilan qarab turishingiz mumkin. U qaynashi bilanoq, og‘zingizga hushtak olib, hammaga taom tayyorligini bildirasiz. Shunday qilib, siz oddiy qozon emas, balki hushtakli qozonning egasi bo‘lasiz.

Boshqa jihatlari qatorida, bu g‘oya bir qator afzalliklarga yo‘l ochib beradi. Xohish bo‘lsa, hushtak o‘rniga saksofon, skripka yoki nog‘oradan ham foydalanishingiz mumkin. Bunday holda, qozon mos ravishda saksofonli, skripkali yoki nog‘orali deb ataladi. Bu fikr butunlay bizga tegishli. Agar, masalan, nog‘orali qozonda ovqat tayyorlangan bo‘lsa, uning pishganidan nafaqat uydagilar, balki butun mahalla xabardor bo‘ladi.

Tushuntirishlar uchun direktorga minnatdorlik bildirdim va qaytdim.

Direktorning dasturxoni atrofida jam bo‘lgan gazetachilar ertasi kuni o‘z nashrlarida “Sanoatimiz yuksalishda”, “Hushtakli qozonlarimiz xorijnikidan afzalroq”, “Yiliga yigirma besh million hushtakli qozon!” kabi sarlavhalar ostida ko‘tarinki ruhdagi maqolalar chop etishdi.

Habib SIDDIQ tarjimasi.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳрида яшаб, 2014 йил 16 октябрь куни вафот этган марҳум **RAXIMOVA ZUMRADXON**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Пушкин кўчаси, 1/А-уй, 75-хонадонда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.Ш.Сабирова нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Қўрғонча МФЙ, Боғча кўчасидаги уйда яшаб, 1999 йил 28 февраль куни вафот этган марҳум **БЕККЕЛДИЕВ МАХСУД**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Бобур шоҳкўчаси, 38-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Т.Усмонов нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Миришкор МФЙ, Миришкор кўчасидаги уйда яшаб, 2022 йил 16 октябрь куни вафот этган марҳум **ТУЛЯНОВА РОХИЛА КАРИМОВНА**,

Марҳамат тумани, Турон МФЙ, Навоий кўчаси, 56-уйда яшаб, 2020 йил 10 май куни вафот этган марҳум **АВАЗОВ МАХАММАД**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Мустақиллик кўчаси, 114-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.И.Алиев нотариал идорасига,

Пахтаобод туманидаги уйда яшаб, 2025 йил 7 март куни вафот этган марҳум **ХУСАНОВ АБДУЛХАКИМ,**

Пахтаобод туманидаги уйда яшаб, 2000-йил 1 март куни вафот этган марҳум **УМУРЗОКОВА МУТОРХОН**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Муаззинбой МФЙ, Олтин йўл кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.А.Рахмонов нотариал идорасига,

Пахтаобод тумани, Тўпабжувоз МФЙда яшаб, 2024 йил 10 май куни вафот этган марҳум **ИСМАНОВ НАСИБЖОН МИРОБИДОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Озод диёр кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Ў.Тўйчибоев нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Бўстон МФЙда яшаб, 2024 йил 2 июлда вафот этган **МАХМУДОВ АЗАМЖОН СОЛИЕВИЧ**,

Шаҳрихон тумани, Тегирмонбоши МФЙда яшаб, 2023 йил 11 февралда вафот этган **ЭГАМБЕРДИЕВ ҒУЛОМЖОН СОТВОЛДИЕВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Оқ олтин МФЙда яшаб, 2022 йил 30 июлда вафот этган **TADJIMIRZAYEV ABDURASHIT**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Маматов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

ADOLAT MEZONI

MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy. Telegram: (+998 99) 995-19-66 E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahrirriyat kompyuter bo‘limida terildi va sahifalandi. «ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 22.08.2025-yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 22.08.2025-yil, soat 14.00. Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog‘ ko‘chasi, 17-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma № . 188 nusxada bosildi.

Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li